

THE ANUSHTEGINID DYNASTY OF THE KHWARAZMSHAHS: CAUSES OF RISE AND DECLINE

Anvar Abdurashidovich Abdurashidov

Lecturer, Department of History Termez State Pedagogical Institute

Tel: +998 93 568 85 22 E-mail: chingiz13xan1313@gmail.com

Sarvina Eshmirza qizi Xolmirzayeva

Student, History Fakulty Termez State Pedagogical Institute

E-mail: sarvinaxolmirzayeva20071304@gmail.com

Abstract

This article analyzes the formation, political rise, and causes of the decline of the Anushteginid Khwarazmshah dynasty (1097–1231) on the basis of historical sources and modern scholarly research. The study comparatively examines the works of medieval authors such as **an-Nasawi**, **Juvayni**, and **Rashid al-Din**, as well as the research of Eastern and Western scholars and approaches found in Uzbek historiography. The article highlights the establishment of a centralized state system by the Anushteginid dynasty, the growth of its economic and military power, and the processes of decline caused by internal political conflicts and external invasions, particularly the Mongol conquest. Furthermore, it evaluates the role of the Khwarazmshah state in the history of Central Asia and analyzes its civilizational significance.

Keywords

Khwarazmshah State, Anushteginid Dynasty, Khwarazm, Central Asian History, Jalal al-Din Mangburni, Mongol Invasion, Political Centralization, Historiography, Medieval Sources, State Decline, Tekish (Takash), Muhammad Khwarazmshah.

XORAZMSHOH ANUSHTEGINIYLAR SULOLASI: YUKSALISH VA INQIROZ SABABLARI

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrası o'qituvchisi

Abdurashidov Anvar Abdurashidovich

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix yoʻnalishi talabasi

Xolmirzayeva Sarvina Eshmirza qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazmshoh Anushteginlar sulolasining (1097–1231) shakllanishi, siyosiy yuksalishi hamda inqiroz sabablari tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda oʻrta asr mualliflari (an-Nasaviy, Juvayniy, Rashididdin va boshqalar) asarlari, shuningdek, Sharq va Gʻarb olimlarining ilmiy ishlari hamda Oʻzbekiston tarixshunosligidagi yondashuvlar qiyosiy jihatdan oʻrganiladi. Maqolada Anushteginlar sulolasining markazlashgan davlat tizimini shakllantirishi, iqtisodiy va harbiy qudratining yuksalishi hamda ichki siyosiy ziddiyatlar, tashqi bosqinlar (xususan, moʻgʻullar istilosi) natijasida yuzaga kelgan inqiroz jarayonlari ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, Xorazmshohlar davlatining Oʻrta Osiyo tarixidagi oʻrni va uning sivilizatsion ahamiyati tahlil etiladi.

Kalit soʻzlar: Xorazmshohlar davlati, Anushteginlar sulolasi, Xorazm, Oʻrta Osiyo tarixi, Jaloliddin Manguberdi, moʻgʻullar istilosi, siyosiy markazlashuv, tarixshunoslik, oʻrta asr manbalari, davlat inqirozi, Takash, Muhammad Xorazmshoh.

KIRISH

Xorazmshoh Anushteginlar sulolasining (1097-1231) yuksalishi va inqirozi muammosi bugungi kunda ham ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbligini saqlab qolmoqda. Chunki bu davlatchilik tajribasi Oʻrta Osiyoda markazlashgan boshqaruv tizimi shakllanishi, siyosiy barqarorlik va uning buzilish omillarini chuqur anglash uchun muhim tarixiy asos boʻlib xizmat qiladi. Mavzuning dolzarbligi, avvalo, boy tarixiy manbalarga tayanishi bilan izohlanadi. Jumladan, an-Nasaviy¹, Juvayniy, Rashididdin²,

¹Насавий Шихобиддин Муҳаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди. (К.Матёкубов таржимаси) Т.: Ўзбекистон, 2006.

² Рашидиддин ибн Фазлуллоҳ. Жомеъ ут-таворих. // Қўлёзма. Ўз ФАШИ. № 1620, №1643. Сборник летописей. Т. I-III. М., -Л., 1940, 1952.

Ibn al-Asir³ kabi o'rta asr mualliflarining asarlari Xorazmshohlar davlatining ichki siyosati, harbiy tuzilishi va tashqi munosabatlari haqida muhim ma'lumot beradi. Ushbu manbalar tarixiy jarayonlarni asl holicha tiklashda asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari Z.M. Bunyodov, S.P. Tolstov, Ya. G'ulomov, I. Jabborov va boshqa olimlar ishlari mavzuni ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish imkonini yaratadi.

Xorazmshoh Anushteginlar sulolasining (1097–1231) yuksalishi va inqirozi masalasini yoritishda keng va rang-barang manbalar majmuasiga tayaniladi. Ushbu manbalarni shartli ravishda bir necha guruhlariga ajratish mumkin bo'lib, ular mavzuni har tomonlama ilmiy asosda tadqiq etish imkonini beradi.

Birinchi guruhni bevosita voqealarga zamondosh yoki ularga yaqin davrda yashab ijod etgan o'rta asr mualliflarining asarlari tashkil etadi. Bu manbalar orasida Shihab al-Din Muhammad an-Nasafi⁴, Ata-Malik Juvayni, Rashid al-Din Hamadani, Ibn Al-Asir⁵ singari mualliflarning asarlarida ham Xorazmshohlar davriga oid muhim ma'lumotlar uchraydi. Mazkur manbalar davlatning siyosiy tuzumi, harbiy yurishlari, diplomatik aloqalari hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida bevosita va ishonchli tarixiy dalillar beradi. Keyingi davr tarixchilari, jumladan Mirzo Ulugbek va Abu al-Ghazi Bahadur Khan asarlarida ham Xorazm tarixiga oid muhim qaydlar uchraydi.

Ikkinchi guruhni xorijiy Sharq va G'arb olimlari hamda XX asr tarixshunosligi namoyandalari tashkil etadi. Bu yo'nalishda turkiyalik olim Ibrahim Kafesoğlu, Mehmet Fuat Köprülü, Ahmet Zeki Velidi Togan, Omelyan Pritsak, Vasily Rosen kabi tadqiqotchilar Xorazmshohlar davlatining siyosiy tarixi va etnik ildizlarini o'rganganlar. Sobiq ittifoq davri olimlaridan Ziya Bunyadov, Sergey Tolstov, Alexander Yakubovsky,

³ Ибн ал-Асир. Ал-комил фи-т-тарих. // Қўлёзма, ЎзФАШИ. №824, I-VI жилдлар; №825, VII-XII жилдлар; Ибн ал-Асир.

⁴ Shixobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi. - T.: O'zbekiston-Sharq, 1999. - 422 b.

⁵ Ибн ал-Асир. Ал-комил фи-т-тарих. // Қўлёзма, ЎзФАШИ. №824, I-VI жилдлар; №825, VII-XII жилдлар; Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-тарих.

Yahyo Gulomov, E. Davlatovlarning ilmiy ishlari Xorazm tarixini arxeologik, tarixiy-geografik va manbashunoslik nuqtayi nazaridan chuqur yoritib beradi. Ayniqsa, S.P. Tolstovning qadimgi Xorazm sivilizatsiyasiga oid tadqiqotlari va Ya. G'ulomovning sug'orish tizimlari tarixiga bag'ishlangan ishlari mintaqaning uzoq tarixiy taraqqiyotini tushinishda muhim ahamiyatga ega.

Uchinchi guruhga mustaqillikdan oldingi va keyingi davrlarda yaratilgan o'quv, ilmiy-ommabop hamda umumlashtiruvchi adabiyotlar kiradi. Bu yerda Sh. Karimov, R. Shamsutdinov⁶, A. Ziyo, A. Sa'dullayev, B. Aminov, U. Mavlonov, N. Norqulov, O. Bo'riyev⁷, I. Jabborov, O. Masharipov va Ziyo Bunyodov⁸ kabi mualliflarning darslik, monografiya va kitob-albomlari alohida ahamiyatga ega. Xususan, I. Jabborovning "Buyuk Xorazmshohlar davlati"⁹, O. Masharipovning "Xorazm tarixidan sahifalar", Sh. Karimov va R. Shamsutdinovning "Vatan tarixi" asarlarida mazkur sulolaning siyosiy va madaniy hayoti umumlashtirilgan holda yoritilgan.

NATIJALAR

Xorazmshoh Anushteginiylar davlatini tashkil etilishining podevori avvalo Saljuqiy hukumdorlar bilan bog'lanadi. 1043-yilda Xorazm saljuqiylar tomonidan qo'shib olinib, vassal davlatga aylantirildi va anushteginlar sulolasiga asos solindi. Keyinchalik "Buyuk Xorazmshohlar davlati" deb atalgan milliy davlatchiligimizning bu buyuk sulolasiga, doktor Ibrohim Kafas o'g'li aniqlab bergan manbaaviy ma'lumotlarga ko'ra, o'g'uz bekligi urug'idan kelib chiqqan va saljuqiylar tomonidan Xorazmga noib etib tayinlangan Anushtegin asos solgan edi¹⁰. Bu davrda Anushteginlar –

⁶ Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. - T.: O'qituvchi, 1997. - 528 b.

⁷ Bo'riyev Omonulla. Xorazmshohlar davlatida siyosiy va madaniy hayot - "Jaloliddin Manguberdi" - kitob-albom. -T.: Sharq, 1999. -B.16.

⁸ Буниёдов З Ануштагин – Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231) (Аҳмад Ашраф ва Маҳкам Маҳмуд таржимаси). Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998.

⁹ Jabborov I. Buyuk Xorazmshohlar davlati. T.: Sharq, 1999. - 141 b.

¹⁰ Буниёдов З Ануштагин - Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231) (Аҳмад Ашраф ва Маркам Маҳмуд таржимаси). -Тошкент.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1998.

Xorazmshohlar davlati goh saljuqiylar, goh qoraxoniylar, goh esa qoraxitoylar davlatlariga to‘la va yarim qaram davlat sifatida mavjud bo‘ldi. Buyuk Xorazmshohlar davlati saltanatining to‘la mustaqilligi uchun Anushtegin avlodidan Qutbiddin Muhammad (1097-1127), Otsiz, El-Arslon va Alouddin Takash (1172-1200), Sulton Muhammad Xorazmshoh (1220-1221) va Sulton Jaloliddin Xorazmshoh Manguberdi omonsiz, sharaflı kurash olib bordilar.

Sultonshoh va Takash davrida "qo‘sh hokimiyatchilik" (diarxiya) 1172-1193 yillar oralig‘ida – Sultonshoh o‘lguncha davom etdi va 1193-1200 yillarga kelib Takash nafaqat o‘zining mutlaq hokimiyatini o‘rnata oldi, balki boshqa davlatlardan amalda to‘la mustaqillikka erishib, xalqaro munosabatlar, jahon tarixiy taraqqiyotining sub’yektiga aylandi (1-rasm). Xorazmshohlar saltanati kutilmaganda halokatga uchrashining ob’yektiv-tarixiy, harbiy-siyosiy va sub’yektiv, etnik, mafkuraviy sabablari juda ko‘p bor mutaxassislar tomonidan tahlil etilganligi uchun Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi, yuksalishi va so‘ngra yemirilib ketishi nafaqat O‘rta Osiyo, balki o‘rta asrlar musulmon Sharqi tarixida muhim jarayon bo‘ldi. Shu sababdan ham bu mavzuga bag‘ishlangan bir qancha tadqiqotlar yaratilgan. Jumladan, chet ellik olimlardan, xususan, turkiyalik olim Ibrohim Qofas o‘g‘lining “Xorazmshohlar davlati tarixi” kitobini tilga olish mumkin. Muallif o‘z asarida 1092–1229-yillar davomida Xorazmshohlar davlatida sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va harbiy voqealarni batafsil bayon qiladi.



1-rasm. Xorazmshohlar davlati hududi.

Xorazmshohlar davlatining inqirozi birgina sabab bilan emas, balki ichki zaifliklar va tashqi bosimlarning birlashuvi natijasida yuzaga kelgan.

Birinchidan, davlat hududi haddan tashqari keng edi. Ala ad-Din Muhammad II davrida imperiya juda katta maydonni egallagan bo'lsa-da, bu hududni samarali boshqarish qiyinlashgan. Viloyat hokimlari ko'pincha mustaqil harakat qilgan va markaziy hokimiyatga to'liq bo'ysunmagan.

Ikkinchidan, saroy ichidagi nizolar ham davlatni zaiflashtirgan. Sulton bilan uning onasi Terken Khatun o'rtasidagi siyosiy raqobat markaziy boshqaruvni izdan chiqargan. Natijada qarorlar bir markazdan qat'iy boshqarilmagan.

Uchinchidan, harbiy tizimda ham muammolar mavjud edi. Qo'shinlar ko'p bo'lsa-da, ular markazlashmagan va intizom jihatdan zaif bo'lgan.

1215–1218-yillar oralig'ida Xorazmshoh va Chingizxon o'rtasida bir necha marta elchilar almashinuvi amalga oshirilgan. Rashid al-Din Hamadani ma'lumotlariga ko'ra, Chingizxon 1218-yilda Xorazmshohga yuborgan maktubida uni “o'z o'g'illari qatorida ko'rishini” bildirgan. Sharq diplomatiyasida bunday ibora amalda qaramlik yoki tobelikni ifodalovchi mazmunga ega bo'lganini Sulton Muhammad yaxshi anglagan edi. Shuningdek, 1218-yilda Chingizxon tomonidan Xorazmga yuborilgan 450 kishilik elchilar guruhida 100 ga yaqin savdogarga josuslik vazifasi ham yuklatilgan edi. Shu sababli ushbu karvon O'tror shahrida talon-taroj qilinib, elchilar qatl etilgan.

Inqirozning hal qiluvchi omillaridan biri Mo'g'ullar imperiyasining keskin kengayish siyosati bilan bog'liq edi. Mazkur imperiya 1206-yilda Chingizxon (Temuchin) tomonidan asos solinib, qisqa muddat ichida ulkan harbiy-siyosiy kuchga aylandi. Uning asosiy maqsadi keng hududlarni egallash va markazlashgan imperiya

barpo etishdan iborat edi¹¹.

Mo'g'ullar istilosi bevosita O'tror voqeasi bilan bog'liq holda boshlandi. Ushbu voqea natijasida diplomatik munosabatlar uzilib, keng ko'lamli harbiy to'qnashuvlarga yo'l ochildi. 1219–1221-yillar davomida mo'g'ul qo'shinlari Xorazm hududlariga bostirib kirib, yirik siyosiy va madaniy markazlarni vayron qildi.

Yana bir omil Turkon xotun Xorazmshoh Anushteginlar davlati inqirozi jarayonida muhim siyosiy omillardan biri sifatida baholanadi. Uning saroy va davlat boshqaruvidagi faol ishtiroki markaziy hokimiyat tizimida muvozanatning buzilishiga hamda siyosiy parokandalikning kuchayishiga olib kelgan.

Ata-Malik Juvayni o'zining “Tarixi Jahongushoy” (“Jahon fotihi tarixi”) asarida ta'kidlashicha, Terken Khatun qang'li urug'idan bo'lgan qipchoq xoni Aqranning qizi bo'lgan. Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Sulton Muhammad Xorazmshoh hukmronligi davrida Turkon xotun saltanat ishlarida yetakchi mavqeni egallagan, uning farmoyishlari va maslahatlari o'g'li tomonidan deyarli so'zsiz bajarilgan.

Shihab al-Din Muhammad an-Nasawining guvohlik berishicha, Terken Khatun o'zining siyosiy ta'siri bilan Sulton Muhammad Xorazmshohga shu darajada kuchli ta'sir o'tkazganki, natijada Xorazmshoh mamlakat ichki siyosatida ham, xalqaro maydonda ham yagona hukmdor sifatidagi mavqeini qisman yo'qotgan.

Bundan tashqari, davlatdagi katta qudratga ega sarkardalarning aksariyati qipchoq zodagonlaridan iborat bo'lgani sababli, hukmdor onasining siyosiy qarorlariga yon berishga majbur bo'lgan. Shihab al-Din Muhammad an-Nasawi bu holatni quyidagicha ifodalaydi: “Agar malikadan va sultondan bir ish haqida ikki xil ko'rsatma kelsa, u holda ularning sanasiga qaralardi va barcha mamlakatlarda keyingi sanaga amal qilinardi¹².

¹¹ Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди. -Тошкент: O'zbekiston, 2006.- Б. 78-79.

¹² Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy “Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mangburni” (Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tavsiloti) “O'zbekiston”nashriyoti, Toshkent.: 1999, 90-bet.

Turkon xotunning ta'siri ostida saroy ahli va zodagonlar bir necha guruhga bo'linib, o'zaro raqobat va adovat kuchaygan. Qipchoqlardan tashkil topgan oliy martabali sarkardalar ko'pincha Turkon xotunga yaqin bo'lib, saroydagi ayrim siyosiy guruhlariga boshchilik qilganlar. Shu sababli saltanat boshqaruvida ichki nizolar kuchayib, markaziy hokimiyat zaiflashgan. Ayrim hollarda Muhammad Xorazmshoh tomonidan chiqarilgan hukm va farmoyishlar Turkon xotun tomonidan kengashsiz va asossiz tarzda bekor qilinganligi ham qayd etiladi. Bu holat davlat boshqaruvida yagona markazlashgan tizimning izdan chiqishiga, qarorlar muvofiqligining buzilishiga hamda siyosiy beqarorlikning kuchayishiga olib kelgan¹³. Nihoyat, mo'g'ullar bosqini arafasida davlatning harbiy-siyosiy boshqaruvi bir markazdan yuritilmaganligi katta oqibatlariga sabab bo'lgan. Yagona mudofaa strategiyasining yo'qligi, qo'shinlarning markazlashmagan holda harakat qilishi va viloyatlarning o'z holicha himoyalaniishi natijasida davlat tashqi tahdidga qarshi samarali qarshilik ko'rsata olmagan. Bu jarayon Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul istilosi oldida Xorazmshohlar davlatining zaiflashuvini tezlashtirgan.

MUHOKAMA

Xorazmshoh Anushteginlar sulolasining (1097-1231) yuksalishi va inqirozi tahlili shuni ko'rsatadiki, bu davlatning tarixiy taqdiri ichki boshqaruv tizimi va tashqi geosiyosiy sharoitlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir. Tadqiqot natijalari mavjud tarixiy manbalar va zamonaviy tarixshunoslik yondashuvlari asosida Xorazmshohlar davlatining kuchayishi ham, tanazzuli ham bir-biri bilan uzviy bog'liq omillar majmuasi natijasi ekanligini tasdiqlaydi.

Tashqi omillar ichida esa Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullar istilosi hal qiluvchi rol o'ynagan. 1218-yilgi O'tror voqeasi diplomatik inqirozga sabab bo'lib,

¹³ Alovuddin Atomalik Juvayniy "Tarixi Jahongushoy" ("Jahon fotihi tarixi") "MUMTOZ SO'Z", Toshkent.: 2015, 98-bet.

Xorazmshohlar davlati va mo‘g‘ullar o‘rtasidagi urushni muqarrar qilib qo‘ygan. 1219–1221-yillardagi harbiy yurishlar natijasida Buxoro, Samarqand va Urganch kabi yirik siyosiy va madaniy markazlarning vayron qilinishi davlatning iqtisodiy va siyosiy asoslarini butunlay izdan chiqargan.

Xulosa qilib aytganda, Xorazmshohlar davlatining yemirilishi faqat tashqi bosqin natijasi emas, balki ichki siyosiy beqarorlik, boshqaruvdagi nomutanosiblik va institutsional zaifliklarning yig‘indisi sifatida baholanishi lozim.

FOYDLANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Насавий Шихобиддин Муҳаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди. (К.Матёкубов таржимаси) Т.: Ўзбекистон, 2006.
2. Рашидиддин ибн Фазлуллоҳ. Жомеъ ут-таворих. // Қўлёзма. Ўз ФАШИ. № 1620, №1643. Сборник летописей. Т. I-III. М., -Л., 1940, 1952.
3. Ибн ал-Асир. Ал-комил фи-т-тарих. // Қўлёзма, ЎзФАШИ. №824, I-VI жилдлар; №825, VII-XII жилдлар; Ибн ал-Асир.
4. Ибн ал-Асир. Ал-комил фи-т-тарих. // Қўлёзма, ЎзФАШИ. №824, I-VI жилдлар; №825, VII-XII жилдлар; Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-тарих.
5. Karimov Sh., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. - Т.: O'qituvchi, 1997. - 528 b.
6. Bo'riyev Omonulla. Xorazmshohlar davlatida siyosiy va madaniy hayot - "Jaloliddin Manguberdi" - kitob-albom. -Т.: Sharq, 1999. -B.16.
7. Jabborov I. Buyuk Xorazmshohlar davlati. Т.: Sharq, 1999. - 141 b.